





Uzbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi
_____ hokimligi
_____ maktabgacha va maktab ta'limi
_____ ishqarmasi
_____ maktabgacha va
maktab ta'limi tasarrufidagi
_____ -maktabgacha ta'lim tashkiloti
o'rta guruh tashkilotchisi
_____ ning
“Ilk qadam” davlat dasturi
uchinchi nashri asosida
“Non turlari” mavzusida tashkillan

FAOLIYAT ISHLANMASI

Oktabr oyining 3-haftasi

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

O'rta guruhlarga oktabr oyi 3-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruhi: O'rta guruhlar uchun

Oy mavzusi: O'zbekiston ne'matlari va boyliklari

Hafta mavzusi: Non turlari.

Ta'limiy faoliyat maqsadlari:

Ta'limiy: non nimadan tayyorlanishi haqida tushuncha berish, novvoylikka qiziqish uygotish;

Rivojlantiruvchi: tarbiyalanuvchilarning nutqini boyitish, ularning so'z boyligini oshirish;

Tarbiyaviy: bir-biriga nisbatan hurmat uygotish.

Keyingi qadam: turli urug'lar suratlari.

Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, mehribon tarbiyalanuvchilarim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda non haqida tanishamiz. Ta'limiy faoliyatimizni Aziz Abdurazzoqning "Bug'doy pishdi" she'ri bilan boshlayman.



Bug'doy pishdi

Aziz Abdurazzoq

Bug'doy pishdi oltinday,
Xuddi quyosh singari.
Chunki unga oltindan Quyosh nuri singgandir.
Nonimiz ham shu sabab Quyosh kabi yumaloq.
Uni doim avaylab,
E'zozlagin, ey, o'rtoq.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, non pishirish uchun bizga, eng avvalo, un kerak bo'la- di. Un esa bug'doyni yanchib olinadi. Bug'doy nima, deb qiziqayotgan bo'lsangiz, e'tiboringizni monitorga qaratng.

(Monitorda bug'doyni dehqon boboyerga sepayotgani tasvirlanadi.) Tarbiyachi: - Bolajonlar, bug'doy bir yilda ikki marta ekiladi. Dastlabkisi ba- horda sepiladi, ikkinchisi esa kuzda sepiladi. Dehqonlarning aytishicha, kuzda ekilgan bug'doyning donlari yirik bo'ladi. Bug'doy pishgach, o'rib olinadi va u tegirmonda yanchib un qilinadi. Hosil yig'ib olingandan keyin bug'doyning poyasi somon qilib bug'doyning o'rilmaganini g'alla deb ataymiz. G'alla bizning aso- siy rizq-ro'zi bo'ladi. Agar g'alla ko'p bo'lsa, yurtida arzonchilik boladi.

Bolalar: - Bolajonlar, sizning faslida uyda sumalak pishirishganini ko'rganmisiz?



Bolalar: - Ha, uyda sumalak pishirishganini ko'rganmisiz?

Tarbiyachi: - Sumalakka undirilgan bug'doy solinib uning yemishiga tushishi uchun men avvaldan bug'doyni undirib qo'yganman. Hozir nishabug'doyni olib chiqaman, sizlar uni tomosha qilishinglar mumkin.

(Tarbiyachi laganda nish urgan bug'doyni stol ustiga olib kelib qo'yadi.)

Tarbiyachi: - Bolalar, bug'doy yangi o'sib chiqqanida nimaga o'xshaydi?

Bolalar: - Bug'doy yangi o'sib chiqqanida xuddi maysaga o'xshar ekan.

Tarbiyachi: - Maysa tagida bug'doyni ko'rishingiz mumkin, bug'doyning qanaqa ekan?

Bolalar: - Bug'doy jigarrang ekan.

Tarbiyachi: - Bolalar, bug'doy pishib yetilganda uning poyasi sariq bo'ladi.

Bolalar: - Tarbiyachi opa, bug'doydan boshqa yana qanday donlar bor?

Tarbiyachi: - Arpa bor, u ham bahorda ekiladi, uning donini qushlarga, poya- sini hayvonlarga yemish sifatida beramiz.

Bolalar: - Tarbiyachi opa, yana nimalarning donlari boladi?

Tarbiyachi: - Gullar, sabzavotlar, ayrim mevalarning urug'lari bo'ladi. Tajribali dehqonlar mevalar pishganda aynan urug'lik uchun o'zlari saralab oladilar. Urug'larni avaylab saqlash ham uning yaxshi meva berishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu ish tajribali odamlarga ishonib topshiriladi.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz.

Quyosh bobo mehribon, (Ikkita qo'lni tepaga ko'tarib birlashtiramiz.)

Doim nurin sochadi. (Qo'llarni ochamiz.)

Mehrin berib barchaga (Qo'llarni ko'krakkacha olib kelamiz.)

Issiq bag'rin ochamiz. (Qo'llarniyana ochamiz.)

Tarbiyachi: Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar:

Bug'doy qanday joyda ekiladi?

Bug'doy qanday usul bilan nimadan foydalaniladi?

G'allakorlar dardlari qanday davoladilaringizga keladi?

Qurish va konstruksiya bo'yicha matematika markazi

Maqsad: bolalar tayyorlangan shakllarni qirqib, yopishtirish yo'li bilan qog'oz quti va qog'ozdan geometriya shakllari yasaydigan.

Kerakli jihoz na materiallar: qog'oz, nay, qog'oz na karton, qaychi na yelim, mavzuga oid rasm, mayda o'yinchoqlar.



Faoliyatni borishi:

1. Namunani tomosha qilish.
 2. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
- Kerakli jihozlarni tanlab olish.
4. Ijodiy ish,

Qo'shimcha: tayyor qutilarni mayda o'yinchoqlar bilan to'ldirish

Qurish-yasash va matematika markazi

Maqsad: bolalar har xil kubik va konstruksiyalardan yonator yasaydilar, sanashni biladilar, rang na shakllarni farqlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar:

kubik, quti, mayda o'yinchoqlar aks ettirilgan rasmlar, rangli anjomlari.

Faoliyatning borishi:

1. Qurilish, mashina, traktor rasmini tomosha qilish.

2. Kubiklardan qutini rejalashtirish.

3. «Nechta shakl berkinib olganini ayt» ta'limiy o'yin.

4. Bolalar ijodiy ishlari jarayoni.

5. Tayyorlangan elevatorlar namoyishi. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: ishni har xil atributlar bilan to'ldirish.

E'tiborga molik jihati: bolalarni jamoada hamjihatda ishlashga o'rnatish, ish tugagandan so'ng o'yinchoqlarni joy-joyiga qo'yish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Non tayyorlash»

Maqsad: bolalar bug'doyni qanday o'stirish haqida tushunchaga ega bo'ladi, nonni tayyorlash va unning xususiyatlarini biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: mashina, traktor, kiyim, o'yinchoq, non va non tayyorlash jarayoni tasvirlangan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar bilan bug'doyning o'sishi, bug'doyning unga aylanish va nonni tayyorlash jarayoni, bug'doyni fermerlar kombaynda yig'ishi, un zavodlarida bug'doy unga aylanishi, nonvoylar non yopishi haqida suhbat.

2. Non haqida maqol va matallar.

Non - aziz.



Non - ota, suv - ona.

Nonsiz ovqat bemaza.

Nonning ushog'i ham non.


Hulosa: Nonni asrash kerak.

3. «Xamir qoramiz- non yopamiz» syujetli o'yiniga tayyorgarlik.

4. Rollar taqsimlash.

5. O'yin faoliyati.

6. Yakun, rag'batlar.



Qo'shimcha: «Nonni asragan qiz» ertagini o'qish. Non haqida maqol va matallarni yod olish. Rasmlar bilan nonni o'zlashtirish.

E'tiborga molik jihati: nonni o'zlashtirish, kattalar mehnatini hurmat qilishga o'rgatish. Lug'atni boyitish.

Til va nutq markazi

G'allakorlarning mehnati

Maqsad: bolalar g'allakorlarning mehnati haqida biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: katta aks va rasmlar, bug'doyni yetishtirish jarayoni tasvirlangan plakatlari.

Faoliyatning borishi:

1. G'allakorlar mehnati haqida suhbat.
2. «Dalada ishlaydigan mashinalarning nonni tayyorlash jarayoni» o'qish.
3. Non haqida maqollar.
4. G'allakorlar mehnati haqida she'rni yod olish.

Qo'shimcha: non tayyorlash jarayoni tasvirlangan slayd ko'rsatish.

E'tiborga molik jihati: bolalar lug'atini boyitish, novvoylik bilan bog'liq qarashni o'rgatish.

Fan va tabiat markazi

Uning xususiyatlari

Maqsad: bolalar unning xususiyatlari va sifatlarini ayta oladilar, unni tayyorlash jarayoni biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: bug'doy na javdar uni, suv, har bir bola uchun xamir idishlari.

Faoliyatning borishi:

1. Bug'doy boshog'ini tomosha qilish, ko'p un ishlab chiqarish uchun bug'doylar ko'p bo'lishi lozimligini aytish.
2. Tarbiyachining unning xususiyatlari to'g'risida hikoyasi (bug'doy va javdar unining farqi, un yumshoq, shaklga ega emas, o'zining xidiga ega, shirin emas, sochiluvchan, mayda zarrachalardan tashkil topgan).

3. Tajriba: bolalarga idishga suv solib, un va tuz qo'shib xamir qorishni taklif etish. Oq undan oq xamir qorilishini ko'rsatish. Xamirdan har xil shakllar yasash.

4. Umumlashtirish.

Qo'shimcha: non va non mahsulotlarining qanday tayyorlanishi haqida multfilm va slaydlar ko'rish.

E'tiborga molik jihati: xamir bilan ishlashni o'rgatish, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

San'at markazi

Applikatsiya: Bug'doy boshogi

Maqsad: bolalar oval va to'rtburchakni qirqib oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: non haqida rasmlar, bug'doy boshog'i, mo'yqalam, oq qog'oz, yelim, sak, qaychi.

Faoliyatning k...

1. Bolalar adabiyatida non haqida asarlar namunalarini o'qish. Bug'doy boshog'ini tomosha qilish.

2. «Nonni asraymiz» taqdimiy...

3. Ishning chizmalarini ko'rsatish.

4. Ishning texnik jarayonini ta'kidlash.

5. Bolalarning ijodiy ishlari.

6. Ishlar tahlili, rag'batlantirish.

Qo'shimcha: mavzu yuzasidan suhbat.

E'tiborga molik jihati: boshog'ning tuzilishini ko'rsatish, qaychini ishlata olish, oval va to'rtburchak shaklini qirqib yopishtirish.

